

KURBONOV

Jasurbek Pozilovich

Alfraganus universiteti "Iqtisodiyot"

kafedrası dotsenti v.b., PhD

jasurbekkurbonov0033@gmail.com

Orcid ID: 0000-0003-2651-3392

KICHIK BIZNESNI VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB- QUVVATLASH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning tayanch subyektlaridan bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini investitsiya salohiyatini oshirish hamda ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetakchi xorijiy mamlakatlar tajribalari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, moliya, subsidiya, soliq imtiyozlari, foiz stavkasi, tijorat banklari, savdo.

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН ПОДДЕРЖКИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация: В данной статье рассматривается и анализируется опыт ведущих зарубежных стран по повышению инвестиционного потенциала и финансовой поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства, которые являются основными игроками в экономике.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, финансы, субсидии, налоговые льготы, процентные ставки, коммерческие банки, торговля.

FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE IN SUPPORTING SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Annotation: This article examines and analyzes the experience of leading foreign countries in increasing the investment potential and financial support of small business and private entrepreneurship, which are the main players in the economy.

Keywords: small business, private entrepreneurship, finance, subsidies, tax breaks, interest rates, commercial banks, trade

Kirish. Jahonda barqaror rivojlanish va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga, jumladan, investitsiyalar ko'lamini kengaytirish hamda ularning samaradorligini oshirishda kichik

biznes va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Dunyoda mavjud korxonalarining 90 foizi, yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 50 foizi, ish o'rinlarining 70 foizi kichik va o'rta

biznes hissasiga to'g'ri keladi"¹. Bugungi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta'minlashda, ishlab chiqarish ko'lamini va sohalar tarkibini kengaytirishda kichik biznesning hissasini ko'tarish uchun investitsiya salohiyatini yanada oshirish va ulardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va unga ta'sir etuvchi omillar borasida iqtisodchi olimlardan I.Y.Zagoruyko, A.T.Shilkina va V.V.Karpushkin, V.G.Basareva, A.S.Kopisova, V.A.Abchukva L.V.Babayeva tadqiqot olib borishgan. Shuningdek, kichik biznesning investitsiya salohiyati A.Sh.Axmeduyev, A.E.Dvoreskaya, I.S.Yurlova, A.M.Margolin, S.V.Zenchenko va M.A.Shemyotkina, T.V.Borovikova, G.V.Zaxarova, N.V.Kiseleva, I.B.Maksimov kabi MDH olimlari ishlarida tadqiq etilgan. Mamlakatimiz olimlari K.Karimova va K.Sharifxodjayeva, N.Murodova, B.Shermuhammedov va M.Mirvaliyev, U.Gofurov kabilar kichik biznes va uning rivojlanish jihatlari hamda omillarini zamonaviy qarashlar asosida boyitganlar. Shuningdek, investitsiya

salohiyati va uning tadbirkorlikka ta'sirini A.M.Sodiqov, N.R.Rajabov, A.Yuldashev, G'.Xusainov kabilar o'rganishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishini bajarish davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, shuningdek, abstrakt mantiqiy yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash amaliyoti xorijiy mamlakatlarda keng tarqalgan. Ayniqsa, mazkur masala moliyaviy yo'nalishda imtiyozlar berishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda, xorijiy mamlakatlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayoni ikki turga bo'linadi. Ular o'z ichiga to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish hamda moliyaviy imtiyozlar berish jarayonini qamrab oladi.

Jumladan, moliyaviy qo'llab-quvvatlashda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor beriladi: past foiz stavkalarida kreditlar ajratish; kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash; kreditlashda kafillik qilish; innovatsion loyihalarni moliyalashtirish; kredit to'lovlari uchun qo'shimcha muddatlar berish yoxud to'liq ozod qilish kabilar.

1-jadval.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesning 2010–2023-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi o'rtacha ulushi dinamikasi, foizda [1,2]

Mamlakatlar	YalMdagi ulushi	Ish bilan bandlikdagi ulushi	Jami eksportdagi ulushi
-------------	-----------------	------------------------------	-------------------------

¹ URL: <http://www.finmarket.ru/news/5499061/>

Yaponiya	50,0	70,2	53,8
Germaniya	53,8	79,0	55,9
AQSh	46,0	49,4	33,7
Xitoy	60,0	80,0	50,0
Koreya	49,4	87,5	30,9
Malayziya	31,9	58,9	19,0
Tayland	38,7	77,9	29,5
Filippin	35,7	61,0	20,0
Indoneziya	57,8	97,2	15,8
Vyetnam	40,0	77,0	20,0
Hindiston	17,0	40,0	40,0
Shri-Lanka	52,0	35,0	20,0
Bangladesh	22,5	40,0	11,3
Pokiston	30,0	70,0	25,0

AQSh. [3, 4, 5] AQShda kichik biznesning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi tizim Kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat (Small Business Administration, SBA) hisoblanadi. Kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda eng asosiy vazifalarni Kichik biznes ishlari bo'yicha Ma'muriyat (KBM) bajaradi:

- kreditlar olishda yordamlashish va biznes uchun kreditlar bo'yicha kafillik berish;
- bevosita subsidiyalash va o'z budjeti mablag'lari hisobidan kreditlash;
- texnik va axborot bo'yicha qo'llab-quvvatlash;
- raqobat muhitini saqlash va rivojlantirish.
- KBM tomonidan quyidagi to'rt yo'nalishda dasturli vazifalar bajariladi:
- moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish imkoniyatini yaratish;

- tadbirkorlikni axborot xizmati, texnik yordam va o'qitish asosida rivojlantirish;

- davlat bilan shartnomalar tuzishda ko'maklashish (tovar va xizmatlarni davlat xaridi bo'yicha);

- kichik korxonalar manfaatlarini himoya qilish (kichik biznes muhiti bo'yicha tadqiqotlar amalga oshiriladi).

Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ikki muassasa: Kichik biznes Ma'muriyati (SBA) va Milliy ilmiy fondlar (NSF) tashkil etib, ular tomonidan qaytarilmaydigan subsidiyalash dasturlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, AQShda imtiyozli zaymlashning quyidagi turlari mavjud:

- to'g'ridan-to'g'ri qarz berish – SBAning kredit manbalari hisobidan amalga oshiriladi;

- tijorat banklari tomonidan kreditlash;

- tijorat banklari kreditlarini kafolatlash – kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning keng tarqalgan shakli hisoblanadi. AQSh hukumati nomidan SBA kreditlarni qaytarilishini kafolatini berishi asosida tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalar tomonidan kreditlanadi. Kafolat asosida kredit bilan bog'liq zarar qoplanadi. Kredit miqdorining 90% ga yaqin qismini qaytarishni kafolatlaydi;

- kichik biznesga soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilgan bo'lib, birinchi yili kichik biznes soliqlarning yarmini to'laydi.

Kanada. [5, 6] Kanadada kichik biznes ko'plab davlat darajasidagi dasturlar asosida rag'batlantiriladi va rivojlantiriladi. Yoshlar va ayollarning ushbu sohada faoliyat yuritishlariga keng sharoit yaratilgan, xususan, yangi tashkil etilayotgan korxonalarining asosiysi ayollar va yoshlar hissasiga to'g'ri keladi.

Kanadada hududiy xususiyatlar asosida soliq va kreditlar bo'yicha

kichik biznesni qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi:

- ikki yildan ortiq faoliyat ko'rsatgan hamda 5 kishidan 99 kishigacha ishchi-xodimlarga ega, yillik savdo hajmi 500 ming dollardan yuqori bo'lgan kichik biznes subyektlariga eksport bozorlariga chiqish bilan bog'liq xarajatlarning 50% ini qoplash bo'yicha kafolat beriladi (Ontarioda qo'llaniladi);

- quyidagi faoliyatlar bo'yicha kichik korxonalarining 50% xarajatlarini kompensatsiya qilish nazarda tutiladi: pavilyon ijarasi va ko'rgazmalar bilan bog'liq xarajatlar, korxonaga joylashtiriladigan hujjatlarni tarjima qilish bilan bog'liq sarflar, korxonaga haqidagi reklama broshyuralarini pochta xarajatlari (Ontarioda qo'llaniladi);

- ixtisoslashgan hukumat va kasaba uyushma investitsiya fondi mavjud bo'lib, ular kichik va o'rta biznesni bevosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi (Kvebek provinsiyasida).

2-jadval.

Moliyaviy manbalarga kirish imkoniyatlari nuqtayi nazaridan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatlarini

Davlat tomonidan KBni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari	Mamlakatlar
KBni kreditlashni kengaytirish uchun kafolatlash ko'rinishida qo'llab-quvvatlash	Kanada, Chili, Daniya, Finlyandiya, Vengriya, Italiya, Koreya, Niderlandiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shveysariya, Tayland, AQSh, Buyuk Britaniya
Startup (<i>startup</i>)lar uchun kafolatlar bo'yicha asosiy sharoitlarni ta'minlash	Kanada, Daniya, Niderlandiya

Eksport jarayonlari bo'yicha davlat kafolatlarini kengaytirish	Kanada, Daniya, Finlyandiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Shvetsiya, Shveysariya, Ispaniya, Buyuk Britaniya
KBni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirishdagi ulushini oshirish	Kanada, Chili, Vengriya, Koreya, Serbiya, Sloveniya, Ispaniya
Foiz stavkalarini subsidiyalash	Vengriya, Portugaliya, Rossiya, Ispaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya
Soliq imtiyozlari, to'lovlarni kechiktirish	Fransiya, Irlandiya, Italiya, Yangi Zelandiya, Ispaniya, Buyuk Britaniya, Rossiya
KBni kreditlovchi ixtisoslashgan banklarni, shuningdek, KBning foiz stavkasidan past holatda (otritsatelnoy protsentnoy stavkoy) kreditlovchi banklarni tashkil etish	Irlandiya, Daniya
Markaziy bank tomonidan kredit tashkilotlari fondlarini tashkil etish	Buyuk Britaniya

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa. Kichik biznesni kreditlashda kafolatlash tizimini qo'llash; kichik biznes subyektlari faoliyati barqarorligi va davomiyligiga hamda ishlab chiqarish ko'lamiga qarab eksport bo'yicha xarajatlarni qoplash amaliyotini takomillashtirish; kichik biznesning reinvestitsiya

faoliyatiga soliq bo'yicha imtiyozlar joriy qilish; ITTKI (NIOKR)ga mablag'larni sarflovchi kichik biznesga imtiyozlar berish (soliqlar bo'yicha). Yuqoridagilar asosida kichik biznesning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi va investitsion salohiyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алимардонов И.М. Кичик бизнес субъектларини кредитлаш борасидаги хориж тажрибасидан Ўзбекистон амалиётида фойдаланиш имкониятлари. // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2017 йил;
2. Сайт Администрации Малого Бизнеса при Президенте США (Small Business Administration – SBA); URL: <http://www.sba.gov/aboutsba/>
3. Жўраев Ҳ.З., Жўраев Ҳ.С. Кичик бизнес ривожланишини қўллаб-қувватлашнинг хорижий мамлакатлар тажрибаси. // Иқтисод ва молия / Экономика и финансы. – №4, 2015. – С. 42–53;

4. Чиназирова С.К., Гишева С.Ш., Михайлюк М.Н., Шурухина Т.В. Зарубежный опыт поддержки малого бизнеса. // The scientific heritage. No 54 (2020). – С. 29–32.
5. Бородкина, В.В., Москвина, А.В., Рыжкова, О.В., Улас, Ю.В. (2015). Государственная поддержка субъектов малого и среднего бизнеса северных стран: Канада, США, Финляндия, Швеция. Российское предпринимательство, 16 (21), 3743–3764. doi: 10.18334/rp.16.21.2074;
6. Кудряшов В. С. Стимулирование и поддержка экспорта предприятий малого и среднего бизнеса в Российской Федерации и за рубежом. // Juvenis scientia. №9, 2018. – С. 25–29.
7. Кальчук А.Ю., Ромашкина В.А. Особенности развития малого и среднего предпринимательства во Франции. // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал. ISSN 1999-2645. – №1 (65). Номер статьи: 6504. Дата публикации: 20.01.2021. URL: <https://eee-region.ru/article/6504/>. DOI: 10.24412/1999-2645-2021-165-4;
8. Усенков И. А. Правовое регулирование и государственная поддержка малого бизнеса во Франции. // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2018. – № 7. 0,3 п. л. URL: <http://e-koncept.ru/2018/183035.htm>.
9. Шередеко Е.В. Меры государственной поддержки малого и среднего бизнеса в Великобритании. // NB: Административное право и практика администрирования. 2015. – №1. – С. 36–44. DOI: 10.7256/2306-9945.2015.1.15863;
10. Веселов Н.А. О применении опыта Великобритании в сфере государственной поддержки малого бизнеса. // Наука без границ. 2018. № 2 (19). – С. 25–28.